Tadqiqot uz

ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

# ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

# JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

SPECIAL ISSUE-2

ТОШКЕНТ-2024

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№SI-2 (2024) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-2



**Бош муҳаррир:**
**Главный редактор:**
**Chief Editor:**
**Сеитов Азамат Пулатович**
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**
**Заместитель главного редактора:**
**Deputy Chief Editor:**
**Сабирова Умида Фархадовна**
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

### 22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
### Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
### Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Каланов Комил Куллахматович**
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Негматова Шахзода Шухратовна**
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
**Шайылдаева Асель Кокоевна**
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**
доктор экономических наук, (Узбекистан)
**Щепилова Галина Германовна**
доктор философских наук, профессор (Россия)
**Рожанский Михаил Яковлевич**
кандидат философских наук (Россия)
**Маматов Нормурат**
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
**Бурнашев Рустам Ренатович**
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

### 22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
### Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
### Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Холбеков Абдуғани Жуманазарович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Акулич Мария Михайловна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**
доктор политических наук, профессор (Испания)
**Фадеева Любовь Александровна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Виктор Агаджаньян**
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллевич**
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

### 22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
### Социология социального сознания и социального процесса.
### Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Николов Стефан**
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
**Ли Ци**
доктор исторических наук, профессор (Китай)
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)


www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Толипов Файзулла Саидович**
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Тагиева Гулсум Гафуровна**
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
**Ахмедова Феруза Медетовна**
доктор философии по социологическим наукам (PhD) (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Заитов Элёр Холмаматович**
доктор философии по социологическим наукам, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**
доктор философии по социологическим наукам, доцент (Узбекистан)
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

**Махкамов Қодиржон Одилжонович**
доктор философии по социологическим наукам, доцент (Узбекистан)
**Доспанова Дилара Уракбаевна**
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Якубов Ильдар Харрасович**
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

**Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов**



**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000



МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

**1. Xolbekov Abdug‘ani, Rasulov Xakim**
HUQUQIY MADANIYAT VA SIYOSIY MADANIYAT O‘ZARO ALOQADORLIGINING SOTSIOLOGIK TALQINI……………………………………………………………………9

**2. Сеитов Азамат Пулатович**
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ДАННЫХ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ СФЕРЕ УЗБЕКИСТАНА……………………………………………………………………..18

**3. Якубов Ильдар Харрасович, Парманов Фарход Ярашевич**
КОНЦЕПЦИИ ВЛИЯНИЯ ИНТЕРНЕТ-ПРОСТРАНСТВА НА ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ…………………………………………………………27

**4. Убайдуллаева Раиса**
ПРАВО, КАК ПРОФИЛАКТИКА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ…………………………35

**5. Abduraxmonova Manzura**
IJTIMOIY HIMOYANI RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY ISH KASBIY FAOLIYATINING NAZARIY KONSEPTUAL JIHATLARI………………………………………………42

**6. Madaminov Baxodir**
JISMONIY MADANIYAT SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING ASOSIY OMILI SIFATIDA…51

**7. Yusupov Rahimjon**
SOTSIOLOGIYANI O‘QITISHDA AHOLINI RO‘YXATGA OLISH TADBIRLARIDAN FOYDALANISH…………………………………………………………………………59

**8. Узакова Зарина**
ФЕНОМЕНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «СОЦИАЛЬНЫЙ КАПИТАЛ» И РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ…………………………………………………………..68

**9. Burxanov Xusniddin**
RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH VA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI……………………………………..75

**10. Hojiyev Zavqiddin**
TASHKILOTLARDA XODIMLAR FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO‘YICHA ILMIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI……………….83

**11. Mahammadjanov G‘olibjon**
ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУТЛАР ВА ИЖТИМОИЙ ОНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ: ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИК, ЗАРУРАТ ОМИЛЛАРИ (СИНЕРГЕТИК ЁНДАШУВ)………………………………………………………………..93

**12. Gaibnazarov Boxodir**
DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA SOTSIAL BOSHQARUVNING ZARURIYATI OMILLARI (SOTSIOLOGIK YONDASHUV)…………………………………100

**13. Mamatqulova Fotimaxon**
O‘ZBEKISTONDA PENSIYA VA NAFAQALARNI RIVOJLANISH BOSQICHLAR……….107

**14. Komilova Xurshida**
XOTIN-QIZLARNI ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI FAOLIYATINING IJTIMOIY ASPEKTLARI - XALQARO TAJRIBA……………………………………………………114

**15. Mannanov Erkin**
SIYOSIY MADANIYAT: ZARURIYATI VA FUNKSIYALARI……………………………123

**16. Ubaydullayev Xurshidjon**
MIGRATSIYA VA TA'LIM MIGRATSIYASINI SOTSIOLOGIK JIHATDAN TAHLIL QILISH……………………………………………………………………130

**17. Akramov Davronbek**
XAVF GURUHIDAGI OILALAR VA ULARNING BOLALARIGA IJTIMOIY XIZMATLAR KO'RSATISHDA KEYS MENEJMENT USULINING SAMARADORLIGI…………………139

**18. Imomova Nozimaxon**
MEHNAT MIGRATSIYASINING XUQUQIY ME'YORIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH……………………………………………………………148

**19. Ахмедова Раъно**
АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ИНДИКАТОРОВ БЛАГОСОСТОЯНИЯ…………………………..157

**20. Латипова Нодира, Абдугафурова Чарос**
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ СОЗДАНИЯ ДОСТУПНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ЛЮДЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В ВУЗЕ…………………………..…….167

## ПРЕДИСЛОВИЕ К НОМЕРУ

Узбекистан, как страна, поставившая целью построение демократического государства, на системной основе проводит выборы различного уровня, которые базируются на нормативно-правовой базе, регулярно совершенствуемой в соответствии с международными избирательными стандартами. Все это направлено на обеспечение участия граждан в управлении государством и обществом, реализацию принципа волеизъявления народа как неотъемлемого атрибута демократического правового государства. Социология как теоретическая наука, анализирующая эмпирические показатели развития общества, также вносит свой достойный вклад в дело осмысления и совершенствования практики проведения выборов с учетом национального опыта демократических выборов.

Так, одним из проявлений политической жизни общества является участие в выборных процессах. Фактически этот акт является важнейшей формой проявления воли народа, от которой зависит характер и особенности общественного и государственного строительства. Социология как инструмент позволяет изучать комплекс проблем, связанных с особенностями подготовки и проведения выборов, а также с поведением населения в выборных компаниях, в том числе электоральных ориентаций социальных общностей и отдельных граждан. Наша наука позволяет на основе эмпирики лучше понять факторы, влияющие на участие в выборах и голосовании, мотивы участия или неучастия в них, изучение участия электората, особенности восприятия ими предвыборных мероприятий, партий и лиц кандидатов, оценка эффективности деятельности СМИ и уровней их влияния на позиции выборов, прогнозирования результатов выборов и т. д.

Это тем более важно, что 27 октября 2024 года в Узбекистане пройдет очередные парламентские выборы. Теперь они пройдут на основе внесенных изменений и дополнений в Избирательный кодекс страны, которые включают порядок проведения выборов в Законодательную палату на основе мажоритарно-пропорциональной (смешанной) системы. В этой системе избирательные округа теперь делятся на одномандатные и единый избирательный округ. 75 депутатов Законодательной палаты будут избраны от одномандатных округов по мажоритарной системе (голосование за кандидата), остальные 75 - по пропорциональной, то есть на основе голосов, отданных политическим партиям (по партийным спискам).

Все это и послужило важным мотивом выпуска данного специального выпуска нашего научного журнала. Открывает данный номер моя статья «Использование социологических данных в политической сфере Узбекистана», посвященной проведению социологических исследований и использования их данных в реализации предвыборных технологиях. Так, утверждается, что в условиях низкой политической активности в Узбекистане представляется важным использовать наработки политической социологии в сфере разработки и реализации стратегий в сфере политического управления в части работы с информационными и коммуникационными потоками. Через комплексное использование ПР-средств поддерживается репутация кандидата, формируется паблисити, создается общий план воздействия на сознание человека.

Интерес представляет и статья профессора Национального университета Узбекистана (далее НУУз), д.соц.н. А.Холбекова и заведующего кафедрой Термезского государственного педагогического института, к.п.н., профессора Х.Расулова на тему «Социологическая интерпретация взаимосвязи правовой и политической культуры». В статье рассматривается интерес граждан к процессам, связанным с политической жизнью общества, восприятием и обеспечением своих прав и свобод, оценка населением не только уровня правовой и политической культуры общества, но также анализируется система управления, политическая культура действующих в ней ответственных руководителей, тенденции их лидерских качеств.

В журнале опубликована статья доцента Университета мировой экономики и дипломатии (УМЭД), к.п.н. И.Якубова и доцента Академии государственного управления

(АГУ), д.соц.н. Ф.Парманова на тему «Концепции влияния интернет-пространства на общественно-политические процессы». В статье проанализированы некоторые теоретические аспекты и различные подходы исследователей к осмыслению данного феномена, выявлены некоторые их особенности. В статье приводятся данные прикладных исследований, указывающие на растущую роль интернет-коммуникаций в формировании общественного мнения, взглядов общества на те или иные общественные проблемы.

Статья профессора НУУз, д.соц.н. Р.Убайдуллаевой «Право, как профилактика девиантного поведения» посвящена современным тенденциям в развитии права как основного регулятора общественной жизни. По мнению автора, в развитии права можно проследить тенденции гуманизации, дифференциации и прагматизации, позволяющие вести учет многообразия форм, уровней, способов практической деятельности и тех трудностей, которые могут привести к правонарушениям.

Ряд авторов представляют собой ученых, непосредственно задействованных в процессах общественного и государственного управления в нашей стране. Например, руководитель отдела социально-правового медиацентра Олий Мажлис Республики Узбекистан, к.п.н. (PhD) Г.Махаммаджанова «Институты гражданского общества и трансформация социального сознания: взаимозависимость, факторы необходимости (синергетический подход)». В статье рассмотрена деятельность, изменения, обновление, преобразование социальных институтов в обществе. Также Б.Гаибназаров, исследователь АГУ в статье «Факторы необходимости социального управления в отношениях государства и общества (социологический подход)», проанализировал новые тенденции, характерные для управления в современном обществе и государстве, в частности, социального управления с социологической точки зрения.

Влияние социальных сетей на выборы рассмотрел к.с.н., соискатель НУУз Х.Бурханов в статье «Проблемы обеспечения информационной безопасности в цифровом обществе и развития национальных сайтов». В данной статье изучен вопрос расширения возможностей информационной системы, развития национальных сайтов Узбекистана в Интернете, современная ситуация и имеющиеся проблемы.

Говоря о выборах можно с большой вероятностью можно говорить о том, что основной тематикой дебатов между политическими партиями страны будет вопрос эффективной реализации идеи «Узбекистан - социальное государство». В этой связи интерес представляет ряд статей, затрагивающих социальный блок развития общества. В частности, заместитель директора Филиала НИЯУ МИФИ в г. Ташкенте, к.с.н. З.Узакова в статье «Феноменологический анализ концепта «социальный капитал» и роль психологических факторов в формировании социального капитала лиц с инвалидностью» дала теоретический анализ преимущественно с позиции междисциплинарного подхода. Результаты исследований автора свидетельствуют о том, что несмотря на разработанные рекомендации по повышению социального капитала людей с инвалидностью, такие как создание доступной среды, инклюзивная и трудовая интеграция, тщательный подбор социального работника, эта проблема все еще остается актуальной и требует более тщательного изучения.

В статье профессора Ферганского государственного университета (ФГУ), д.с.н. (DSc) М.Абдурахмоновой даны теоретико-концептуальные аспекты профессиональной деятельности социальной работы по развитию социальной защиты. В статье разъяснено значение профессионального этического кодекса профессии социального работника при оказании социальных услуг, сделаны выводы о значении социальной работы в развитии профессиональной деятельности в новой системе социальной защиты Узбекистана.

В номере еще одна статья из Ферганы, а именно, доцента ФГУ, к.с.н. (PhD) Н.Имомовой «Совершенствование правовой и нормальной базы в сфере трудовой миграции», затрагивающей такую актуальную для общественного мнения в период выборов тему как государственную политику по регулированию процессов трудовой миграции. В статье представлены выводы, полученные в результате сравнительного анализа социологических исследований и официальных данных, проведенного автором.

В завершение отметим, что статьи из данного специального номера нашего журнала найдет своего читателя и будет способствовать лучшему понимаю развития современной социологической мысли в нашей стране. Напомним, что наш журнал открыт для любого автора, который стремиться донести свои мысли об общественных процессах, которые представляют актуальный характер.

**С уважением,**
**Главный редактор Сеитов Азамат**

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Mamatqulova Fotimaxon,**
Farg'ona Davlat Universiteti tayanch doktoranti
e-mail: Fotimamatqulova95@gmail.com

# O'ZBEKISTONDA PENSIYA VA NAFAQALARNI RIVOJLANISH BOSQICHLAR

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.13338531

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada pensiya va nafaqalar ta'minotining rivojlanish bosqichlari ko'rib chiqiladi. Bunda qadimgi tarixiy jarayonda shakillangan birinchi pensiya va nafaqalar joriy etilganligi keng yoritilgan Hozirgi kunda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda pensiya va nafaqa ta'minoti tizimini rivojlanishi, pensiya ta'minoti tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar va ularning ahamiyati ochib berilgan bo'lib, ushbu ijtimoiy ko'mak turli xil tendensiyalarga ega tarixiy o'tmish mavjudligi bugungi kundagi nafaqalar harakatida imkoniyati cheklangan insonlarga va yoshga doir pensiya olish huquqiga ega ekanligi va uni moliyalashtirishning mehanizmlari keng tahlil qilingan. Shuningdek, pensiya va nafaqa ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zi:** pensiya, ijtimoiy yordam, ta'minot, aholiga ijtimoiy ko'mak, nafaqa, imkoniyat cheklanganlar, pensiya ta'minoti tizimi, moliyalashtirish.

---

**Маматкулова Фатимахан,**
Докторант Ферганского государственного университета
e-mail: Fotimamatqulova95@gmail.com

# ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПЕНСИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются этапы развития пенсионного обеспечения. Широко освещается внедрение первых пенсий и пособий, происходившее в древности. В настоящее время происходит развитие системы пенсий и пособий в сфере социальной поддержки населения, реформы, реализуемые в пенсионной системе. В частности, раскрыта их значимость, связь этой социальной поддержки с ее историческим прошлым, проанализировано право на получение пенсии для людей с ограниченными возможностями и по старости, а также механизмы ее финансирования. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию пенсионной системы.

**Ключевые слова:** пенсия, социальная помощь, обеспечение, социальная помощь населению, пособие, инвалид, пенсионная система, финансирование.

**Mamatkulova Fatimakhan,**
Doctoral student of Fergana State University
email Fotimamatqulova95@gmail.com

## STAGES OF PENSION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

**ABSTRACT**

This article examines the stages of development of pension provision. The introduction of the first pensions and benefits, which took place in ancient times, is widely covered. Currently, the system of pensions and benefits in the sphere of social support of the population, reforms implemented in the pension system are being developed. In particular, their significance, the connection of this social support with its historical past are revealed, the right to receive a pension for people with disabilities and old age, as well as the mechanisms of its financing are analyzed. In addition, proposals and recommendations for improving the pension system are developed.

**Key words:** pension, social assistance, provision, social assistance to the population, benefit, disabled, pension system, financing.

---

**KIRISH**

Bugungi globallashuv davrida jahon miqyosida chuqur moliyaviy iqtisodiy inqiroz davom etayotgan, raqobat tobora kuchayib borayotgan keskin bir sharoit dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot dasturlariga oʻzgartirishlar kiritishni obʼektiv zaruratga aylantirmoqda, jumladan, pensiya va nafaqa tizimida ham.

Rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida, Oʻzbekiston respublikasi ham oʻzining uzoq yillik tarixiga ega mamlakatlar qatoridan joy olgan. Hozirda mustaqil va demokratik tamoyillarga ega suver davlat hisoblanib, ayni damda 37 millionga yaqinlashayotgan aholi (Statistika qoʻmitasi, 2024-y.) soniga ega mamlakatimiz turli xil sohada izchillik bilan rivojlanib bormoqda. Biroq, demografik oʻzgarishlar, jumladan, doimiy aholi sonining oshib borishi natijasida pensiya tizimida ham turli muammolar yuzaga kelishi tabiiy xol.

Nafaqa va pensiyalar taʼminoti tizimi har bir mamlakatning aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim holatlardan biri hisoblanadi. Bunda mehnat layoqatini butunlay yoki vaqtincha yoʻqotgan, boquvchisidan mahrum boʻlgan shaxslar, belgilangan muddatlarda pensiya uchun badallar oʻtkazib borganlar va yoshga doir belgilangan nafaqa va pensiyalar orqali ularni moddiy taʼminlash tushuniladi, yaʼni pensiya va nafaqa ayrim toifadagi shaxslar uchun davlatning eng muhim ijtimoiy kafolatlaridan biridir.

Shuningdek, jahon tajribasida pensiya taʼminoti ijtimoiy muxofazaning ajralmas qismi hisoblanib, davlatning asosiy fuksiyalaridan biri hisoblanadi. Davlatning siyosiy tuzimiga muvofiq holda fuqarolarning ijtimoiy taʼminotga boʻlgan huquqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining tomonidan qabul qilinib, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”sida qaytd etilgan. “Unga koʻra, pensiya taʼminoti – muayyan davlat qonunchiligida oʻrnatilgan tartibda, asosiy daromad manbasini qariyalik, nogironlik va boquvchisini yoʻqotgan fuqarolarni moddiy taʼminlashga yoʻnaltirilgan huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasini tashkil qiladi.

Ijtimoiy sugʻurta, pensiya sugʻurtasining ijtimoiy iqtisodiy asoslari nazariyasi va nafaqava pensiya tizimidagi islohatlarni amalga oshirishda rossiyalik olim V.Roikning [2] ilmiy ishlarida aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va nafaqa taʼminotining oʻrni va ulardan foydalanish usullarini ilmiy izoxlagan.

Taniqli olimlardan yana birlari, S.Orlov hamda A.Shemetovlar (2013) ham “Rossiya Federatsiyasining pensiya taʼminoti” nomli monografiyasida pensiya taʼminoti tizimida nodavlat pensiya fondlarining muhimliligiga alohida eʼtibor bergan. Ular monografiyada nodavlat pensiya fondlarini pul mablagʻlarini yigʻadigan va undan oʻz aʼzolariga pensiya va nafaqalarni toʻlashda foydalanadigan notijorat tashkilot ekanligi haqida oʻz taʼriflarini berib oʻtishgan.

Shu oʻrinda nemis iqtisodchi olim A.Borsh-Supan [3] mamlakatda nafaqa tizimidagi muommolarni isloh qilinishida asosan aholining xarajat va aholining oʻrtacha umr koʻrish yoshining

o‘sishi nuqtai nazardan ilmiy taxlil qilingan. Xususiy pensiya fondlari notijorat tashkilotlarda pensionerlarning ihtiyoriy jamg‘armasiga ko‘ra ularga moliyaviy nafaqa tayinlanishi tug‘risidagi ilmiy izlanishlar Vavulining [1] nazariyalarida aks ettirilgan.

**METODOLOGIYA**

Shu o‘rinda, pensiya va nafalarni rivojlantirishda jahon xalqaro moliyaviy tashkilotlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro pensiya va ijtimoiy jamg‘armalar assotsiatsiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan har yili jahon mamlakatlari pensiya tizimlarining holati, undagi islohotlar tadqiq etib kelinmoqda.

Maqola O‘zbekistonda pensiya va nafaqa ta’minotini rivojlanish bosqichlari va tarixiy jarayonlari tizimini istiqbolda barqaror amalga oshirilishini ta’minlash yo‘llarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, avvalo mavzu dolzarbligi asoslandi, ushbu soha bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganildi. Ilmiy tadqiqot davomida empirik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**ASOSIY QISM**

Qadimgi tarixiy jarayonda shakillangan birinchi pensiya va nafaqalar qirolliklarda jangchilariga mukofat tariqasida foydalanishlari uchun yer maydonlari ko‘rinishida taqdim qilinganligi yoritilgan. Keyinroq XX asrga kelib, Rossiya davlati uchun bu rag‘bat tarzida ishchilarning sodiqligi va yaxshi xizmatlari uchun mukofat vositasida, keyinrog esa bu rag‘bat aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlariga taqdim qilinadigan moddiy yordam himoyasini kafolatlaydigan muhim ijtimoiy funksiyaga aylanganligi ilmiy taxlil qilingan. Tadqiqot jarayonida pensiya ta’minoti tizimining nazariy va amaliy asoslari borasida xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o‘rganildi va tahlil qilingan. Shuningdek, pensiya va nafaqalarni rivojlanish bosqichlarini tarixiy shaklini taxlil etar ekanmiz, avvalo VII asrda halifa Umar davrida xalifalikda xayriya shakli sifatida pensiyalar joriy etildi. Aynan halifalik hazinasiga aholi tomonidan yig‘iladigan soliqlar evaziga muxtoj odamlarga, qariyalarga, yetimlarga, beva ayollarga va nogironlarga xayriya shaklida pensiyalar joriy etilib ko‘mak berish uchun ishlatilgan.

Birinchi marta «pensiya» so‘zi lotincha «pension» – to‘lov so‘zidan olingan bo‘lib, ilk pensiya Rim imperiyasida Yuliy sezar tomonidan joriy etilgan. XI asrning ikkinchi yarmida esa Parij hisob palatasining hujjatlarida paydo bo‘lgan. Shuningdek, arab halifaligi hazrati Umar (raziyallohu anhu) davrida ham odamlarga nafaqa to‘lash joriy qilingan.

O‘rta asrlarda pensiya birinchi marta XVII asrda Fransiyada joriy qilinib, harbiy dengiz floti zobitlariga nafaqalar to‘langan. XVIII asrning oxirlarida esa Buyuk fransuz revolyusiyasi paytida «Pensiya to‘g‘risida» ilk qonun qabul qilingan bo‘lib, 50 yoshdan oshgan va 30 yil mehnat stajiga ega bo‘lgan davlat xizmatchilari pensiya olish huquqi belgilangan. Xuddi shu holatni Prussiya davlatida ham XIV asrning boshlarida ilk pensiya fondlari tuzilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu o‘rinda, Yevropa mamlakatlarida ommaviy pensiya va nafaqa to‘lash tartibi amalga oshib, birinchi bo‘lib Germaniyada 1889 yilda boshlangan. Keyinrog‘ Daniya va Buyuk Britaniya mamlakatlarida 1908 yilda, Fransiyada esa 1910-yilda va 1913-yilda Niderlandiyada hamda Shvesiyada pensiya to‘lash tizimi amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu jarayonlar pensiya sug‘urtasini to‘lagan holda ishlab keksaygan, boquvchisini yo‘qotgan, ish jarayonida nogiron bo‘lganlarga to‘langan.

Ommaviy pensiya va nafaqa to‘lash tizimi keyinchalik 1919-yilda Italiyada, 1927-yilda Kanadada va AQShda esa 1935-yilda joriy etilgan.

O‘zbekistonda esa ilk pensiya tabiiy ravishda sobiq Ittifoq davrida, 1930-yil «Pensiya to‘lash tartibi to‘g‘risida» ilk qonun chiqqan va pensiya to‘lash tizimi amalga oshirilgan. 1932-yilda pensiya 55 yosh ayollar uchun, erkaklar uchun esa 60 yosh etib belgilangan. 1937-yildan boshlab barcha aholining shaharda istiqomat qiluvchi ishchi-xizmatchilarga pensiya to‘langan. Qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlar esa pensiya to‘lanmagan, ya’ni pensiya aholiningog ma’lum bir qismiga to‘langan. Keyinchalik 1956-yilda «Davlat pensiyasi haqidagi qonun» qabul qilinadi va barchaga pensiya to‘lash tartibi bosh kotib Nikita Xrushyovning taklifiga binoan joriy etiladi. O‘sha davrdan boshlab aholining barcha qatlamlari uchun birdek pensiya to‘lanila boshlandi.

Bugungi kunda O‘zbekiston mustaqil va o‘zining uzoq yillik tarixiga ega mamlakat hisoblanadi. Mamlakat mustaqillikka erishganidan so‘ng, aholini ijtimoiy himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada aniq belgilab qo‘yildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega» deb belgilab qo‘yilgan.

Ayni damda 37 millionga yaqinlashib borayotgan aholi (Statistika qo‘mitasi, 2024) soniga ega mamlakatimiz ko‘plab sohada izchillik bilan rivojlanib bormoqda. Lekin, demografik o‘zgarishlar, jumladan, doimiy aholi sonining ortib borishi oqibatida ayrim sohalarda, xususan, pensiya va nafaqa tizimida bir muncha muammolar yuzaga kelishi kutiladi. Ya’ni, 2017-yilning o‘zida mamlakat aholisi 533,4 ming kishiga ko‘paygan. 2018-2025-yillarda qilingan prognozlarga ko‘ra pensiya yoshidagi aholi ulushining 1,2 mln. kishiga oshishi kutilmoqda. Bu esa mamlakat aholisi tarkibida pensiya yoshidagi insonlar o‘sib borayotganini ko‘rsatmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, butun dunyoda o‘rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 62 yoshni tashkil etsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 57,5 yoshni tashkil etadi (ayollar uchun 55 yosh, erkaklar uchun 60 yosh).

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra 2022-yildan boshlab pensiya yoshidagi shaxslar soni 11 foizdan oshadi va 2025-yilga kelib 14 foiz darajasiga yetadi, deb taxmin qilinmoqda.

Qo‘shni davlatlar miqyosida taxlil qilsak, Tojikiston, qirg‘iziston va Qozog‘istonda yoshga doir pensiyaga chiqish me’yori erkaklar uchun 63 yosh, ayollar uchun – 58 yosh, deb belgilangan.

**Markaziy davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlaridagi pensiya yoshi (Pensiya jamg‘armasi, 2019)**

**1-jagval**

| **Mamlakatlar** | **Pensiya yoshi** | |
|---|---|---|
| | Erkakla | Ayollar |
| Armaniston | 63 | 63 |
| Ozarbayjon | 65 | 63 |
| Qozog‘iston | 63 | 58 |
| Qirg‘iziston | 63 | 58 |
| Tojikiston | 63 | 58 |
| Turkmaniston | 62 | 57 |
| O‘zbekiston | 60 | 55 |

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika Qo‘mitasi  2029 yilgi ma’lumoti

Ushbu jadval ma’lumotlarini tahlil qilsak, MDH mamlakatlarida pensiya yoshi bir xillikni tashkil qiladi. Mamlakatimizda bu holat pensiya yoshi hozircha erkaklar uchun – 60 yosh, ayollar uchun 55 yosh deb belgilangan. Davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh etish Konsepsiyasiga ko‘ra O‘zbekistonda 2019-2030-yillarda pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirish masalasi asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Repsublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “..... pensiya va nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibini qayta ko‘rib chiqish, pensiya tizimini tubdan isloh qilish zarur” deb aytganlar (SH.Mirziyoev, 2018).

Pensiya jamg‘armasining 2022-yil uchun prognoz ko‘rsatkichlari 23 032,0 mlrd. so‘m etib belgilangan bo‘lib, ijro 24 097,8 mlrd. so‘mga yoki 105 foizga bajarildi. Shuningdek, Jamg‘arma tomonidan 4,2 mln. nafar pensiya va nafaqa oluvchiga 36,7 trln.so‘m xarajatlar amalga oshirildi.

Jamg‘arma tomonidan 336,9 ming nafar fuqaroga pensiya va nafaqalar tayinlangan. Bu ko‘rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan 43,1 ming nafarga yoki 14,6 foizga oshgan [13].

**2021 yil bir oylik oʻrtacha pensiya miqdori**

**2-jadval**

| Xududlar | Soʻm miqdori |
|---|---|
| Toshkent shahri | 1 mln 250 ming 992 soʻm |
| Navoiy | 1 mln 176 ming 323 soʻm |
| Toshkent viloyatda | 1 mln 12 ming 617 soʻm |
| Buxoro | 941 ming 411 soʻm |
| Sirdaryo | 936 ming 392 soʻm |
| Qoraqalpogʻiston Respublikasi | 918 ming 930 soʻm; |
| Samarqand | 870 ming 800 soʻm |
| Qashqadaryo | 876 ming 728 soʻm |
| Xorazm | 870 ming 800 soʻm |
| Surxondaryo | 850 ming 685 soʻm |
| Jizzax | 848 ming 930 soʻm |
| Namangan | 802 ming 125 soʻm |
| Andijon viloyati | 801 ming 640 soʻm |

*Manba: Oʻzbekiston Respublikasi pensiya jamgʻarmasi

2021-yil 1 oktabr holatiga respublika boʻyicha pensiya oluvchilarning umumiy soni 3 mln 548 ming 93 nafar boʻlib, umumiy aholi sonidagi ulushi 10,2 foizni tashkil qilgan holda 1991-yil 1 yanvar holatiga nisbatan 1 mln 389 ming 98 nafarga yoki 64,3 foizga koʻpaygan [14].

Shu oʻrinda mamlakatimizda oʻrtacha eng yuqori pensiya Toshkent shahrida (1 mln 250 ming 992 soʻm) qayd etilgan boʻlsa, eng kam oʻrtacha miqdordagi pensiya Andijon viloyatiga (801 ming 640 soʻm) toʻgʻri kelgan [15].

Shuningdek, 2022-yil sentabr oyida pensiyalarning bir oylik oʻrtacha miqdori 1 035,8 ming soʻmni tashkil etib, 2021-yil dekabr oyiga nisbatan 112,9 ming soʻmga yoki 12,0 foizga oshgan.

Mamlakatda pensiya va nafaqa olish shakillari mavjud boʻlib, ular qoʻyidagicha islox etiladi.

Davlat pensiya tizimi - bu aholining turli qatlamlari manfaatlarini qondirishga qaratilgan iqtisodiy va huquqiy institutlarni birlashtirgan murakkab tizim hisoblanadi. Tizimga halqaro mamlakatlar misolida qarasak, Rossiyada pensiya tizimi hozirda islohot va modernizatsiya holatida namoyon boʻlib, hozirda pensiya tizimining parametrlari va tuzilishini oʻzgartirishni nazarda tutuvchi yangi institutlar shakllantirilmoqda.

Mamlakatimizda milliy qonunchilikda pensiya tizimlarining samaradorligini belgilaydigan muhim jihatlarga quyidagilar kiradi:

- mamlakatda pensiya ta’minoti vazifalarini amalga oshirish uchun moʻljallangan tashkilotlarning tuzilishi;
- mamlakat milliy siyosatining roli, asosiy ijtimoiy sub’ektlar (ish beruvchilar va xodimlar), federal va mintaqaviy hokimiyat organlari, sugʻurta tashkilotlari;
- moliyaviy qoʻllab-quvvatlash usullari;
- sugʻurta badallari (boshqa belgilar - ish staji, fuqarolik, nogironlik, ehtiyoj va boshqalar) va pensiya toʻlovlari oʻrtasidagi munosabatlar.

Shu oʻrinda pensiya tizimini 3 xil turi mavjud:

- **Yoshga doir** pensiya (2 xil boʻladi, umumiy asoslarda tayinlanadigan va imtiyozli asoslarda tayinlanadigan pensiya) turlariga boʻlinadi.

Umumiy asoslarda tayinlanadigan yoshga doir pensiya – erkaklar 60 yoshga toʻlganda, ayollar esa 55 yoshga toʻlganda tayinlanadigan pensiya hisoblanadi.

- **Nogironlik pensiyasi** – Ijtimoiy ta'minot turi hisoblanib harakatda imkoniyati cheklangan qatlamlarga va ehtiyojmand gurux vakillarini ehtiyojlarini qondirish uchun to'lanadigan nafaqa hisoblanadi
- **Boquvchisini yo'qotganlik** pensiyasi – vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasiga binoan, "aholining barcha qatlamlar, ya'ni har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bolganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa xollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega" dir. Shuningdek, pensiya va nafaqa ta'minoti masalalari O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" qonuni (1993-yil 3-sentabr) bilan belgilangan.

Shuni aytish mumkinki, jamiyatning turli qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, unda ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan qatlamlarga sezilarli ahamiyat berilishini kuzatishimiz mumkin. Aynan, mamlakatda ijtimoiy ta'minot bilan qamrab olingan fuqarolar soni qanchalik ko'p bo'lsa, aholiga nisbatan ijtimoiy himoya munosabatlar darajasi shunchalik yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bu esa aholining turmush darajasini yaxshilanishiga imkon beradi.

Demak, ijtimoiy ta'minot iqtisodiy kategoriya sifatida jamiyatning moliyaviy resurslariga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayonini ifodalaydi, bu holat ijtimoiy xavfsizlikning ta'minlovchi davlat qonunchiligiga binoan belgilangan moddiy ta'minotni belgilab beradi.

**XULOSA**

Xulosa o'rnida, shuni ham alohida takidlash kerakki, pensiya tizimini isloh qilishning asosiy maqsadi asosan aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarini ta'minlanishi natijasida keksa va yordamga muhtoj qatlamlarni birlamchi ehtiyojlarini qondirish uchun ishonchli himoya vositasi sifatida, hamda uni iqtisodiy o'sishiga ko'maklashishuvchi vosita sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan, mustaqillikning dastlabki davrida 1991-yilda qisman islohot amalga oshirildi va pensiya hamda nafaqa olish tizimi pensiyalar miqdori, ish stajiga va o'rtacha oylik ish haqiga bog'liq holda pensiya to'lovlarini moliyalashtirish tashkil etilib, pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirila boshlandi.

2005-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekistonda pensiya ta'minoti joriy etildi pensiyani taqsimlashdan sug'urta va jamg'arish tamoyillariga bosqichma-bosqich o'tish orqali amalga oshirilgan islohot ta'minlashga qaratildi. Ushbu qonun asosida dastlabki bosqichda (2005-2006-yillarda) amaldagi pensiya tizimiga qo'shimcha pensiya ta'minoti va asos sifatida jamg'arib boriladigan elementlar kiritildi va jamg'arib boriladigan pensiya tizimini shakllantirish majburiy holga aylandi.

O'zbekistonda 2007-yildan boshlab pensiya islohotining ikkinchi bosqichida miqdoriga qarab sug'urta pensiyasini bosqichma-bosqich joriy qila boshladi.

Demografik vaziyat prognozi shuni ko'rsatadiki, pensiya yoshidagi aholining o'sishining ortishi mehnatga layoqatli aholining o'sish sur'atlaridan oshib ketadi, buning natijasida 2050-yilga kelib O'zbekistonda nafaqa oluvchilar soni mamlakat umumiy aholisining 19,4 foizini tashkil etadi va bu o'z navbatida pensiya tizimining moliyaviy ahvolini yomonlashtiradi, chunki pensiya jamg'armasining xarajatlar qismining o'sish sur'ati daromadlarining o'sish sur'atlaridan oshib ketadi.

**Adabiyotlar/ Литература/ References:**

1. Вавулин Д.А. (2016) Негосударственные пенсионные фонды: место в системе обязательного пенсионного страхования 2016. - № 2. – С.162-176.
2. Роик В.Д. Социалная политика. Социалное обеспечение и страхование: учебник и практикум для вузов. – Москва: Издателство Юрайт, 2020. – 522 с.
3. Rozanov A. (2015) Public pension fund management: best practice and international experience // Asian Economic Policy Review. 2015.№10. – P.275-295.
1. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий маълумоти.

2. Ш.Давронов. Пенсия таъминоти тизимини ислоҳ қилиш концепцияси: жорий ҳолати, омиллари ва устувор йўналишлари. Молиячи маълумотномаси бюллетени. 2018 ноябр №11 (83) сон. 9-бет.

3. 2019-2030 йилларда давлат пенсия таъминоти тизимини ислоҳ этиш Концепцияси. Манба: www.pfru.uz – Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг расмий веб сайти.

4. Averting the Old Age Crisis. A World Bank Policy Research Report. Published for the World Bank Oxford University Press. 1994. –.p 2.

5. Турсунов Ж.П. Пенсия тизимини ислоҳ этишнинг хориж тажрибаси. Молиява банк ишижурнали 2 (2022), 108-113.

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиѐевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28.12.2018. Манба: www.president.uz – Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб сайти.

7. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси маълумотлари.

8. “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартишлар киритиш ҳақида”ги Қонун.

9. Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 3 сентябрдаги “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги 938-XII-сон Қонунининг 7-8 моддалари. Манба: www.lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

10. Роик В.Д. Социалная политика. Социалное обеспечение и страхование: учебник и практикум для вузов. – М.: Издателство Юрайт, 2020. – 522 с.

11. Rozanov A. (2015) Public pension fund management: best practice and international experience // Asian Economic Policy Review. 2015.№10. – P.275-295.

12. Вавулин Д.А. (2016) Негосударственные пенсионные фонды: место в системе обязательного пенсионного страхования 2016. - № 2. – С.162-176.

13. https://uza.uz/uz/posts/12-mingdan-ortiq-boquvchisini-yoqotgan-oquvchi-va-talabalarning-pensiyalari-23-yoshgacha-uzaytirildi_431291

14. https://kun.uz/kr/news/2021/10/27/eng-yuqori-pensiya-qaysi-hududda-beriladi

15. ttps://kun.uz/kr/news/2021/10/27/eng-yuqori-pensiya-qaysi-hududda-beriladi.

ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

# ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

# JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

SPECIAL ISSUE-2

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000